



**Sodikov Furqat,**  
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti  
katta ilmiy xodimi, t.f.f.d (PhD)

## O‘ZBEKISTON MAHALLIY BOSHQARUV IDORALARI FAOLIYATIDA XOTIN-QIZLARNING O‘RNI (tarixiy tahlil)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi (Turkiston ASSR), Xorazm Xalq Sovet Sotsialistik Respublikasi (XXSR) va O‘zbekiston SSRda xotin-qizlarning mahalliy boshqaruv idoralaridagi faoliyati tarixiy manabalarga tayangan holda o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** mahalliy boshqaruv, xotin-qizlar, viloyat, uyezd, volost, syezd, sovet, xotin-qizlar qo‘mitalari.

**Аннотация.** В данной статье на основе исторических источников исследуется деятельность женщин в местные органы управления в Туркестанской Автономной Советской Социалистической Республики (Туркестанская АССР), Хорезмской Народной Советской Социалистической Республики (ХНССР) и Узбекской ССР.

**Ключевые слова:** местные управление, женщины, область, уезд, волость, съезд, совет, женские комитеты.

**Annotation.** This article, based on historical sources, examines the activities of women in local government in the Turkestan Autonomous Soviet Socialist Republic (Turkestan ASSR), the Khorezm People's Soviet Socialist Republic (KhPSSR) and the Uzbek SSR.

**Key words:** local authority, women, regional, uyezd, volost, syezd (congress), soviet, women's committees.

**Kirish.** Xotin-qizlar azaldan nafaqat oila sarishtasi, farzandlar tarbiyalovchisi balki davlat va jamiyatning boshqaruvida ham o‘z hissalarini qo‘shib kelishgan. Xususan, O‘rta Osiyoda sovet hokimiyati o‘rnatilgach, xotin-qizlarning erkinligi va huquqlarini ta‘minlash asosiy masalalardan biri sifatida kun tartibiga qo‘yildi. Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi (Turkiston ASSR), Xorazm Xalq Sovet Sotsialistik Respublikasi (XXSR) va O‘zbekiston SSRda ularning mahalliy boshqaruv idoralari faoliyatidagi ishtiroki ancha jonlana boshlangan.

**Asosiy qism.** Turkiston ASSRda 1920-yildan boshlab xotin-qizlar qo‘mitalari tuzila boshlandi. 1920-yilning oxiri – 1921-yilning boshlarida xotin-qizlar qo‘mitalari faoliyatida jonlanish kuzatildi va ayollar mahalliy sovetlar ishiga jalb qilina

boshlandi. Barcha mahalliy sovetlar ichida Toshkent shahar sovetida bu ishlar yaxshi yo‘lga qo‘yilgan edi. 1921-yilning 1-iyulida mazkur sovetning 80 nafar a‘zosini ayollar tashkil etib, shundan 19 nafari mahalliy millat vakillaridan iborat edi. Shuningdek, Turkiston Kommunistik partiyasi (TKP) Markaziy Komiteti (MK) 1921-yilda mahalliy Sovetlarga bo‘ladigan saylovlarda har bir saylov komissiyasi tarkibida xotin-qizlar qo‘mitalari a‘zolari bo‘lishini nazarda tutuvchi ko‘rsatmalarni barcha viloyat va uyezdlarga yubordi. Mazkur ko‘rsatma asosida faqat Sirdaryo viloyatida uyezd va volost syezdlari vakilligi saylovlariga Markaziy sovet partiya maktabining 20 nafar kursantlari jalb etilgan edi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Хакимов М. Развитие национальной советской государственности в Узбекистане. – Ташкент: Наука, 1965. – С. 190.

1924-yilda Turkiston ASSR viloyatlari ijroiya qo'mitalarining tarkibi shuni ko'rsatadiki, barcha viloyat ijroiya qo'mitalarida (Yettisuv viloyatidan tashqari) 138 nafar xodim ishlagan bo'lib, mahalliy xalq o'rtasida o'zbeklar ko'pchilikni tashkil etgan (1-jadval)<sup>2</sup>.

Faqat Sirdaryo viloyati ijroiya qo'mitasidagina ayollar faoliyat yuritgan. Bu esa Turkiston ASSRda hali gender tenglik masalasi yo'lga qo'yilmaganini ko'rsatadi.

Xorazm Xalq Sovet Respublikasida ham xotin-qizlar huquqlariga rasmiy maqom berilgan. Ayollar huquqlarining erkaklar bilan tengligi e'lon qilinishi mazkur Konstitutsiyaning eng katta ijobiy jihati bo'ldi. Natijada Xorazmda ayollarning bo'limlari, ustaxonalari, klublari, savodsizlikni tugatish maktablari va ularning boshqa madaniy-ma'rifiy tashkilotlari tuzilgan<sup>3</sup>.

O'zbekiston SSR tashkil topgach, jamiyatda xotin-qizlarning rolini oshirish masalasi qat'iy qilib belgilandi. Shu jihatdan mahalliy boshqaruv idoralarida ham ularning roli oshib bordi. Rayon, shahar va qishloqlarda xotin-qizlar klublari,

<sup>2</sup> Ўзбекистон МА, Р-17-фонд, 1-рўйхат, 168-иш, 25-варак.

<sup>3</sup> Советские конституции. Хрестоматия. В 4 частях. Часть 1. Первые советские республики, 1918-1922 гг. / Сост. Д.В. Кузнецов. [Электронный ресурс]. — Благовещенск: Благовещенский государственный педагогический университет, 2015. — С.322.

artellari, maktablari, yig'ilishlari, konferensiyalari o'tkazila boshlandi. Xotin-qizlar klublarida yevropalik va o'qimishli mahalliy ayollar ushbu volost yoki qishloqlardagi xotin-qizlarga turmush tarzi, gigiyena, bola parvarishi, salomatlik va hunar o'rgatish sirlarini, ayollarning erkaklar bilan teng huquqli ekanligini targ'ib qilganlar. Mahalliy sovetlardagi partiya yacheykalari jamiyatda gender tenglik, xotin-qizlarning mustaqil mehnat faoliyati bilan shug'ullanishi va mahalliy boshqaruvda faoliyat yuritishi uchun amaliy ishlarni olib borgan.

Ayollar yer-suv islohotida targ'ibotchi sifatida ishtirok etdi. Xotin-qizlarga berilgan erkinliklar mahalla tizimida o'zgartirishlarga olib keldi. Masalan, 1926-yil Toshkent eski shahar xotin-qizlar bo'limi mahalla komissiyalari tarkibiga mazkur mahalla ayollaridan bir vakil kiritish talabini qo'yan. Shunday qilib, ilk bor mahalla komissiyalariga o'tkazilgan saylovlarda xotin-qizlar ishtirok eta boshlaganlar<sup>4</sup>.

Shuningdek, qishloq sovetlarida ham ayollar safi oshib bordi. Masalan, 1925-yilda 6,4 foiz ayollar ushbu sovetlar a'zosi bo'lsa, 1926-yilga kelib bu ko'rsatkich 12,8 foizni yoki ikki barobar oshdi<sup>5</sup>.

<sup>4</sup> Маликова Г. Махалла институти ривожланишининг тарихий-хукукий масалалари. — Тошкент: Янги китоб, 2017. — Б. 39.

<sup>5</sup> Зайченко Ж.А. Классовая борьба в узбекском кишлаке. (1925-1929 гг.). — Ташкент: Узбекистан, 1989. — С. 53.

1-jadval

1-jadval. Turkiston ASSR viloyat ijroiya qo'mitalari tarkibi (1924-y.)

| № | viloyat ijroiya qo'mitalarining nomlari | A'zolari soni | Partiyaviyligi               |           |               | Ijtimoiy holati |           |              |           | Jinsi      |          | Millati   |                       |            |          |           |               |           | Jami       |
|---|-----------------------------------------|---------------|------------------------------|-----------|---------------|-----------------|-----------|--------------|-----------|------------|----------|-----------|-----------------------|------------|----------|-----------|---------------|-----------|------------|
|   |                                         |               | Kommunistik partiya a'zolari | Nomzodlar | Partiyacizlar | Ishchilar       | Dehqonlar | Xizmatchilar | Boshqalar | Erkaklar   | Ayollar  | O'zbeklar | Qirg'izlar (qozoqlar) | Turkmanlar | Tojiklar | Ruslar    | Qoraqalpoqlar | Boshqalar |            |
| 1 | Sirdaryo                                | 30            | 26                           | 1         | 3             | 5               | 18        | 6            | 1         | 28         | 2        | 9         | 11                    | -          | -        | 8         | -             | 2         | 30         |
| 2 | Farg'ona                                | 27            | 23                           | 1         | 3             | 8               | 1         | 18           | -         | 27         | -        | 15        | 13                    | -          | 1        | 6         | -             | 2         | 27         |
| 3 | Samarqand                               | 29            | 24                           | -         | 5             | 7               | 16        | 4            | 2         | 29         | -        | 12        | -                     | -          | 8        | 3         | -             | 6         | 29         |
| 4 | Turkman                                 | 25            | 17                           | 6         | 2             | 4               | 18        | 1            | 2         | 25         | -        | -         | -                     | 16         | -        | 7         | -             | 2         | 25         |
| 5 | Amudaryo                                | 27            | 13                           | -         | 14            | 2               | 24        | -            | 1         | 27         | -        | 4         | 11                    | 1          | -        | 2         | 7             | 2         | 27         |
|   |                                         | <b>138</b>    | <b>103</b>                   | <b>8</b>  | <b>27</b>     | <b>26</b>       | <b>77</b> | <b>29</b>    | <b>6</b>  | <b>136</b> | <b>2</b> | <b>40</b> | <b>25</b>             | <b>17</b>  | <b>9</b> | <b>26</b> | <b>7</b>      | <b>14</b> | <b>138</b> |

Yuqorida ko'rsatilgan amaliy ishlar natijasida mahalliy sovetlar xotin-qizlarning jamiyatdagi erkinligini ta'minlash va uning belgisi sifatida paranj tashlash ("Hujum") harakatining asosiy targ'ibot maydoniga aylandi.

Bu davrga kelib mahalliy boshqaruv idoralarida xotin-qizlar soni sezilarli darajada oshdi. Bunga sabab esa 1927-yil martidan boshlab amalga oshirilgan "Hujum" harakati edi. Ushbu harakat natijasida o'n minglab ayollar paranjini tashladi. Sanoat korxonolari va qishloq xo'jaligida, boshqaruv tizimida faoliyat yuritayotgan ayollar soni ko'paydi. "Hujum" harakati ayollarga erkinlik berdi, ularning jamiyatda o'z o'rnini topishiga yordam berdi, erkin ishlash, so'z erkinligi huquqlarini berdi. Bu, albatta, ushbu harakatning ijobiy holati edi. Lekin mazkur islohotni tezkorlik bilan amalga oshirilishini, hali bunday erkinliklarga ko'nikmagan musulmon O'zbekiston jamiyati birdek ijobiy kutib olmadi. Ko'plab ayollar bu harakatning qurboniga aylandi.

Mahalliy hokimiyatda xotin-qizlarning roli oshib borishini quyidagi jadvalda ham ko'rish mumkin (2-jadval).

Agar 1927-yilda qishloq sovetlari a'zolari orasida atigi 3904 nafar ayol bo'lgan bo'lsa, 1930-yilda bu ko'rsatkich 8836 nafar bo'lgan. 1927-yilda qishloq sovetlari raislari 25 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 1930-yilga kelib 343 nafarni tashkil etgan. 1927-yilda tuman ijroiya komitetlari va shahar kengashlariga xotin-qizlar saylandi. Sovet hokimiyati o'z oldiga katta vazifalar qo'ydi, ya'ni besh yillik rejalarni amalga oshirishda turli sohalarda yangi ishchi sinfi sifatida xotin-qizlarga alohida e'tibor qaratildi. Xuddi shu singari mahalliy boshqaruv idoralarida rahbarlik ishlariga ham xotin-qizlar jalb etildi<sup>6</sup>.

<sup>6</sup> Содиқов Ф. Ўзбекистон ССРда маҳаллий бошқарув идоралари фаолияти (1917–1938 йиллар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси. – Тошкент: 2022. – Б.114.

1937-yilda qabul qilingan Konstitutsiya saylov huquqining keng joriy etilishi, ayollarning erkaklar bilan tengligi va boshqa masalalarni o'zida aks ettirgan.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, O'zbekiston tarixida xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o'rni sekin-astalik bilan kuchayib brogan. Istiqlolga erishgach, ushbu ko'rsatkichlar yanada ortib bordi. Hozirda davlat boshqaruvida xotin-qizlarning o'rni salmoqli hisoblanadi. Ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, bugungi kunda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 33 foizi (2018-yilda 12,6 foiz), Senat a'zolarining 24 foizi (2018-yilda 20 foiz), Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari deputatlarining 25 foizi ayollardan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining Raisi, Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari, Bosh vazir o'rinbosari, Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili, Bola huquqlari bo'yicha vakili, Oliy sud raisining birinchi o'rinbosari, Bosh prokuror o'rinbosari lavozimlarida ayol rahbarlar faoliyat yuritmoqda.

Vazir va vazirga tenglashtirilgan lavozimlarda xotin-qizlar ulushi 2018-yilda 2,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, ayni vaqtda ushbu ko'rsatkich qariyb ikki baravarga oshib, 5,7 foizga etgan.

Bugungi kunda 8 nafar vazir o'rinbosari, 1 nafar qo'mita raisi o'rinbosari, 2 nafar agentlik direktori o'rinbosari lavozimida xotin-qizlar ishlab kelmoqdalar.

Tuman (shahar) hokimlari lavozimida 2021-yilda 6 nafar ayol faoliyat yuritgan bo'lsa, bugungi kunda ularning soni 4 nafar (Kattaqo'rg'on shahar, Bo'ston, Olot, Boyovut tumanlari)ni tashkil etmoqda.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari tizimida 4 nafar rektor, 62 nafar prorektor (direktor o'rinbosarlari), 208 nafar fakultet dekani va dekan

2-jadval

#### O'zbekiston SSR boshqaruv idoralarida ayollar sonining o'sishi (1925–1927-y.)<sup>1</sup>

| Yillar    | Qishloq sovetlarida | Qishloq sovet raislari | Shahar sovetlari | Rayon sovetlari | Okrug ijroiya qo'mitalari | O'z SSR MIQ | Jami |
|-----------|---------------------|------------------------|------------------|-----------------|---------------------------|-------------|------|
| 1925–1926 | 1438                | 6                      | 462              |                 | 21                        |             | 1988 |
| 1926–1927 | 3904                | 21                     | 967              | 232             | 41                        | 16          | 4151 |

<sup>1</sup> Зайченко Ж.А. Классовая борьба в узбекском кишлаке. (1925–1929 гг.). – Ташкент: Узбекистан, 1989. – С. 53.

o‘rinbosari lavozimlarida ayollarimiz rahbarlik qilib kelmoqda.

Shuningdek, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta‘minlash, oila institutini har tomonlama mustahkamlash bo‘yicha davlat siyosatini samarali amalga oshirish maqsadida eng quyi bo‘g‘in – mahalla va xonadongacha kirib boradigan vertikal tizim yaratildi. 10 mingga yaqin mahallada xotin-qizlar faoli lavozimi joriy etildi.

Qarorlar qabul qilish jarayonida xotin-qizlarning ishtiroki sezilarli darajada ortdi. Ularning boshqaruv lavozimidagi ulushi 33 foizga, tadbirkorlik sohasida 37 foizga, siyosiy partiyalarda 46 foizga, oliy ta‘limda 48 foizga yetdi.

**Xulosa.** Xullas, sovet hokimiyati o‘rnatilgach, O‘zbekistonda xotin-qizlarni davlat va jamiyat hayotiga faol jalb qilish kuchaydi. Xotin qizlar klublari, to‘garaklari, burchaklari tuzila boshlandi. Xotin-qizlarning ma‘naviy va siyosiy ongini oshirish maqsadida mahalliy xotin-qizlar tayyorlov kurslari va o‘qishlarga yuborildi. Keyinchalik aynan ular mahallalarda ayollar o‘rtasida targ‘ibot ishlarini olib borishdi. Natijada ayollarning huquqiy va siyosiy ongi oshirildi, ular o‘qish va ishlashni boshlashdi. Sovet hokimiyatining xotin-qizlarni davlat va jamiyat ishlariga jalb qilganini quyidagicha tahlil qilish mumkin:

– bir tomondan, xotin-qizlarga berilgan erkinliklar hamda ularni o‘qish va bandlikka jalb qilish xotin-qizlar uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Ular o‘zlari xohlagan sohalar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishdi. Siyosiy saviyasi kengaydi. Hayotga bo‘lgan qiziqishlari ortdi, huquqiy savodxonligi oshdi. Tibbiy-gigiyena bo‘yicha yangi bilimlarga ega bo‘ldi;

– Ikkinchi tomondan, sovet hokimiyati ayollardan ishchi kuchi va o‘z saflarini kengaytirish uchun foydalandi. Chunki 20-asr boshida O‘rta Osiyoda qishloq xo‘jaligi va sanoatda ayollar salmog‘i nihoyatda past bo‘lgan. Asosiy ishchi kuchini erkaklar tashkil etgan. Lekin sovet hokimiyati o‘rnatilgach, ularga qarshi boshlangan qarshilik harakatida, asosan, erkaklarning ishtirok etishi, boy, ziyoli, din vakillari, savdogarlarning sovet dushmani deb e‘lon qilinishi va ularning ta‘qib qilinishi ishchi kuchining kamayib ketishiga sabab bo‘ldi.

– uchinchidan, urushdan mag‘lubiyat asosida chiqqan, katta miqdorda reparatsiyalarni to‘lashga majbur bo‘lgan sovet hokimiyati sanoatni kuchaytirishi, kuchli davlatlar safiga qayta kirishi kerak edi. Bu uchun esa qishloq xo‘jaligi va sanoatni rivojlantirish muhim hisoblanib, faqatgina erkaklar ishchi kuchidan foydalanish orqali ular o‘z oldiga qo‘ygan ulkan marralarga erisha olmas edi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Хакимов М. Развитие национальной советской государственности в Узбекистане. – Ташкент: Наука, 1965. – С. 190.
2. Ўзбекистон МА, Р-17-фонд, 1-рўйхат, 168-иш, 25-варак.
3. Советские конституции. Хрестоматия. В 4 частях. Часть 1. Первые советские республики, 1918-1922 гг. / Сост. Д.В. Кузнецов. [Электронный ресурс]. – Благовещенск: Благовещенский государственный педагогический университет, 2015. – С.322.
4. Маликова Г. Маҳалла институти ривожланишининг тарихий-ҳуқуқий масалалари. – Тошкент: Янги китоб, 2017. – Б. 39.
5. Зайченко Ж.А. Классовая борьба в узбекском кишлаке. (1925-1929 гг.). – Ташкент: Узбекистан, 1989. – С. 53.
6. Содиқов Ф. Ўзбекистон ССРда маҳаллий бошқарув идоралари фаолияти (1917-1938 йиллар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси. – Тошкент: 2022. – Б. 114.